

BOSHLANG‘ICH TA’LIM - KELAJAK POYDEVORI

Toshkent shahar Yashnobod tumani

204-o’rta ta’lim maktabining Boshlang’ich ta’lim fani o’qituvchisi

Ismailova Dilbaray Abduraxmanovna

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunning kelajagi bo’lmish yosh avlodni tarbiyalashda boshlang’ich ta’limning o’rnijudayam beqiyosligi haqida fikrlar yoritib berilgan. Sogлом avlodni shakllantirishda boshlang’ich ta’limni o’rnijudayam kata.

Kalit so’zlar: mantiqiy fikrlash, internet texnologiyalari, aqliy faoliyat, o’yin, bahs, suhbat, musobaqa, sayohat, davra suhbat.

Boshlang’ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanib, darslarni tashkil etish ta’limda yuqori sifat va samaradorlikka olib keladi. Boshlang’ich ta’lim tizimidagi innovatsion texnologiyalarning yo’nalishlari, boshlang’ich sinf o’quvchilarining ta’lim mazmunini o’zlashtirishlariga innovatsion yondashish, boshlang’ich ta’lim jarayonida interfaol ta’lim metodlarini tanlash va amalda qo’llash orqali o’quvchilarining faolligini oshirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Pedagogik yangiliklarni yaratish, ularni baholash, amaliyotda qo’llash va rivojlantirish bilan shug’ullanadigan fanga pedagogik yangilik deyiladi. Pedagogik yangiliklar-bu g’oyalar, usullar, vositalar, texnologiyalar yoki tizimlar. Vatanimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to’liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish maqsadida o’quv jarayoniga axborotkommunikatsiya va internet texnologiyalarini keng joriy qilish bo‘yicha amaliy ishlar Davlat dasturlarida ko’rsatib qo’yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda olib borilmoqda. Ularda quyidagilar asosiy vazifalar sifatida belgilab qo’yilgan:

- sog’lom bolani shakllantirishda ta’lim-tarbiya tizimi va sportning rolini kuchaytirish, maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog’ini kengaytirish, ularni yuqorimalakali va tajribali pedagoglar bilan ta’minalash, boshlang’ich ta’limning yuqori sifatini ta’minalagan holda bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish, sog’lom turmush tarzini keng targ’ib etish, bolalar ayniqsa, qiz bolalar o’rtasida jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg’otish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- o’qitish jarayoniga ilg’or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy etish;
- ilg’or va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni boshlang’ich sinflar o’qituvchilari faoliyatiga joriy etish bo‘yicha metodik qo’llanmalarni ishlab chiqish va nashr etish;

- boshlang‘ich sinflar darsliklari uchun multimedia ishlanmalarini bosqichmabosqich ishlab chiqqan holda o‘qitishning o‘yinli shakllari va mediatexnologiyalardan foydalanishni kengaytirish.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetning ta’lim sohasiga keng kirib kelishi ta’lim xizmatlarining globallashuvi uchun ham katta yo‘l ochib bermoqda. Rivojlangan davlatlar ta’lim sohasida bo‘layotgan bunday ijobiy jihatlarini e’tiborga olgan holda, ta’lim sifatini yuksaltirish uchun axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan ommaviy ravishda foydalanish davr talabiga aylanmoqda. Umumta’lim maktablari o‘quvchilari aqliy salohiyatining o‘sib borishi, ularning ta’lim mazmuniga chuqurroq kirib borishga intilishi, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib dunyo yangiliklaridan boxabar bo‘lishga qiziqishlari o‘zo‘zidan ma’lumki, o‘qituvchilardan tinimsiz izlanishlari bugungi kun nafasi bilan yashashi hamda ta’lim sohasidagi eng so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lib borishni talab etadi. “XXI asr – axborot texnologiyalari asri” deb bejiz aytilmagan. Bugungi kunga kelib ta’lim sohasida ko‘plab yutuqlarga erishilmoxda. Ayni vaqtga kelib ta’lim sohasida samarali islohotlar amalga oshirildi. Innovatsion texnologiyalarga asoslanib darslarni o‘tkazish yaxshi natijalarni bermoqda. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llash jahon amaliyotida keng qirrali bo‘lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazarlaridan yondashish lozim. Dars jarayoni murakkab ijodiy mashg‘ulotdir. Uning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning faolligiga bog‘liq. Ularni faollashtirish uchun axborot texnologiyalari, o‘yin, bahs, suhbat, musobaqa, sayohat, konferensiya, davra suhbati, rolli o‘yinlarni qo‘llash, kitob bilan ishslash, kompyuter mashg‘ulotlariga ko‘proq vaqt ajratish kerak. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o‘rinli qo‘llanilishi, mashg‘ulotlarning qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan o‘quv materiallarining chuqur o‘zlashtirilishiga keng imkoniyat yaratib beradi. Pedagogik jarayonlarga ta’limning zamonaviy texnologiyalarini kiritish, yoshlarni mustaqil ijodiy ishlashga, erkin fikrlashga o‘rgatishni hozirgi davr talabi ekan, uning ta’lim-tarbiya bilan uzbivyligini ta’minalash bugungi kun vazifasidir. Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ko‘p qismi maktabga chiqmasdanoq kompyuter savodxonligiga ega bo‘lishmoqda. Ular kompyuter orqali har xil o‘yinlarni o‘ynashni, kompyuter qismlaridan qanday foydalanishni bog‘cha yoshidanoq o‘rganib olmoqda. Shularni e’tiborga olib, boshlang‘ich ta’limga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni kiritish talab darajasiga chiqmoqda. O‘qish, ona tili, matematika, tabiat, musiqa, mehnat, salomatlik darslari bo‘yicha dasturlar asosida tayyorlangan animatsiyali, syujetli, videoroliklardan, slaydlardan foydalanish maqsadga muvofiqlikdir. Masalan, boshlang‘ich sinflarda atrofimizdagi olam va tabiatshunoslik darslarida axborot texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilar uchun o‘z hududi va bolani o‘rab turgan tabiatga

bo‘lgan mehr va muhabbatini anglagan holda ongli munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Ona tili va o‘qish darslarida mavzuning aniq ma’lumotlarini tushunib olishga, kalit so‘zlar bilan tanishishga, matnda asar qahramonlari, voqealar ketma-ketligi bilan tanishishga imkon beradi. Mehnat darslarida yangi g‘oyalarning vujudga kelish imkonini beradi. Musiqa va salomatlik darslarida videoroliklar, slaydlar o‘quvchilarning mavzuni jonli o‘zlashtirishlari uchun samarali natija beradi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, dars jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish dars mavzusining muammoli masalalariga diqqatni qaratish imkonini beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘quvchilarga ular mакtabda ta’lim olishni boshlangan vaqtidan boshlab ommaviy ravishda o‘qitishni boshlash kerak, chunki bu davrda o‘quvchilarda ko‘nikmalar tez shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimova M. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.:TDIU, 2017. 58- b.
2. Rasulova F., Abdullaeva R. Pedagogicheskaya etika. -T.: TDIU, 2019.
3. Kazadayev, A., Sharopov, B., Hakimov, S., Umarov, I., Muxtoraliyeva, M., Dadaxanov, F., & Abdunazarov, A. (2022). MAMLAKATIMIZDA NEMIS TA’LIM TIZIMINI JORIY QILISHNING SAMARADORLIGI TAHЛИLI. *Journal of new century innovations*, 18(1), 124-129.